

FARZANDIM DILBANDIM

**Teshaboeva Nargiza Bilolidinovna**  
*Oltinko'l tumani 2-sonli kasb hunar maktabi*  
*Psixologi*



**Annotatsiya:** Farzand inson hayotining mazmuni, oilaning mustahkam silsilasi. YAxshi, solix farzand ota –onaning baxt-iqboli, ikki dunyo saodatiga etkazuvchi dilbandidir.

**Kalit so‘zlar:** ota-on, farzand, oila, hissiy impulslar, hissiyotlar, ruhiyat.

Garchi har bir ota-on farzand tarbiyalashda o‘zlariga ma’qul uslubga tayansalarda, ba’zan maxsus bilimlar ko‘magiga ehtiyoj sezadilar.

Har bir insonga farzandi bir soniya ichida o‘zgarib qolishi tanish holat bo‘lsa kerak: mana hozir u biron narsa istaydi-da, bir necha soniyalar o‘tgach, qovog‘ini uyganicha "Xohlamayman!" deydi. YAna onalarning «Nega?», «Nima bo‘ldi?» va «Sababi nima?» degan savollari javobsiz qoladi. Loren Tamm ko‘p yillar davomida og‘ir kasalga qarab kelgan, hozir esa baxtli rafiq va ona. U farzandlar bilan kelishish juda mushkul ekanini tan oladi. YOmon xulqning sababi aslida nimada? Loren xonim biringchi navbatda ota-onalar quyidagilarga e’tibor qaratishini maslahat beradi: tug‘ilgan vaqt va 3 yoshga qadar bolalar xulqi hissiyotlarga javob beruvchi miya qismi tomonidan boshqariladi. Har soniyada bola miyasida 700 ta yangi neyronlar shakllanadi! SHu sababli farzandlar qulq solmaydi — sababi, ularning sho‘xligida emas, bu rivojlanish vaqtida bosh miya yanada faolroq shakllana boshlaydi, bola xulqiga esa hissiyotlar mas’uldir. Aynan shu sababli bolalar ota-onaning «Nega?», «Nima bo‘ldi?», «Nima sababdan bu ishni qilding?» yoki «Nega yig‘layapsan?» kabi mantiqiy savollariga javob bera olmaydi. Bolalar nega buni xohlashini yoki ayni damda istamasligini tushuna olishmaydi. Ular faqatgina o’sha vaqtda istayotgan narsalari bo‘lishini istashadi, xolos. Hissiy impulslar ta’siri ostida bolalar savollarga yig‘lamsirab, baqirib yoki mavzuga doir bo‘lmagan so‘zlar bilan javob qaytarishadi. YOki aksincha, hech nima demay, jum o‘tirishadi. Loren bu haqida bilgach, 2 yoshli o‘g‘li bilan muloqotning yangicha usulini o‘ylab topdi. «Keyingi safar, o‘g‘lim nonushtaga non eyishini istaganida, men barchasini tayyorlab berdim, u esa xo‘mrayib, nonni erga tashlab yubordi: „Bo‘ldi, bu nonni emayman!“, men u bilan bahslashmaslikka va ko‘p savollar bermaslikka qaror qildim. U chindan ham nima sababdan, yaqinda tayyorlangan, mazali nonni egisi kelmayotganini biladi. Uning

miyasida engib bo‘lmas hissiy impuls shunday deydi: „Bas, istamayman!“. Men esa quyidagicha javob qaytara boshladim: „YAxshi, hozir eyishni istamasang, keyinroq eyishing mumkin“ va to‘xtab turdim. Mening o‘g‘lim bir necha daqiqa o‘ylanib turdi va chindan ham istashini tushunib etdi. Men chetga o‘tib, o‘zim uchun qahva tayyorladim... 3, 2, 1... Mutlaqo rad etganidan so‘ng bolam qaytib keldi va nonni eyishni istashini aytdi. Ajoyib emasmi? 7 daqiqa tinch turib, o‘g‘limning roziligidiga ham erishdim». YOdda tuting: bolalar bilan tortishish kerak emas, ularning hissiyotlarini qabul qiling, farzandingizni quchib, o‘z xohishlari haqida bir qarorga kelishiga vaqt bering. CHunki u sizga ko‘rsatmoqchi bo‘lgan barcha narsa — ayni damda u nimani istashi yoki istamasligidadir.

**Farzandingiz yolg‘on gapiryaptimi?**

*Demak, siz uni qattiq nazorat ostiga olgansiz!*

**Farzandingiz o‘ziga ishonmayaptimi?**

*Demak, siz uni ruhlantirmas ekansiz!*

**Farzandingiz yaxshi gapira olmayaptimi?**

*Demak, siz u bilan suhbatlashmas ekansiz!*

**Farzandingiz o‘g‘rilik qilyaptimi?**

*Demak, siz unga sovg‘a-salom bermayotgan ekansiz!*

**Farzandingiz qo‘rqoqmi?**

*Demak, siz uni ko‘p himoya qilarkansiz!*

**Farzandingiz boshqalarni hurmat qilmayaptimi?**

*Demak, siz uning yonida ovozingizni pasaytirmas ekansiz!*

**Farzandingiz doim qovog‘i osilganmi?**

*Demak, siz uni maqtamas ekansiz!*

**Farzandingiz qizg‘anchiqmi?**

*Demak, siz u bilan o‘zaro hamkorlik qilmas ekansiz!*

**Farzandingiz boshqalarga nisbatan tajovuz qilyaptimi?**

*Demak, siz unga nisbatan qo‘pol munosabatda bo‘larkansiz!*

**Farzandingiz zaifmi?**

*Demak, siz unga ko‘p do‘q-po‘pisa qilar ekansiz!*

**Farzandingiz sizni qizg‘anyaptimi?**

*Demak, siz unga nisbatan bee‘tibor ekansiz!*

**Farzandingiz sizni bezovta qilib, tinchingizni buzyaptimi?**

*Demak, siz uni bag‘ringizga bosib, yuzlaridan o‘pmas ekansiz!*

**Farzandingiz sizga bo‘ysunmayaptimi?**

*Demak, siz undan ko‘p narsa talab qilarkansiz!*

**Farzandingiz odamovi bo‘lib qolganmi?**

*Demak, siz o‘zingiz bilan o‘zingiz ovora ekansiz!*

**Bola yig‘lamasligi yoki harhasha qilmasligi uchun nima qilish kerak?**

Bolani yig‘lashdan, xarxasha qilishdan to‘xtatishning eng yaxshi usuli (urish, urishish, qo‘pollik qilish emas) bu shunchaki uni boshqa biror narsa bilan chalg‘itish, e’tiborini boshqa narsaga tortishdir

### **5 yoshli qizim bilan hech ona bola til topisha olmayapmiz...**

Qizim 5 yoshda. Tug‘ilganidan beri ancha injiq. Hozir ko‘p narsani tushunsa ham ko‘p injiqlik qiladi. CHunki xomiladorlik davrim xudi farzandimdek xarakterda bo‘lgan . Erkalatib yaxshi gapirsam, badtar erkalik qilib injiqlanadi. Urihsam ham aks ta’sir qiladi. O‘zi xohlagan vaqtida kayfiyati yaxshi bo‘lib qoladi. Katta bo‘lgan sari tushunib, yaxshilanib borar desam, aksincha bo‘lyapti. Hech ona bola til topisha olmayapmiz. Qizimga qanday muomala qilsam bo‘ladi? degan savollar bilan mutaxassis psixologlardan maslaxat oldim va qizimga katta odamga qyyiladigan talabni olib tashlab, bolaga qaraganday munosabatda byla boshladim. Odatda doimiy norozi onaning farzandlari ham injiq, qaysar bylar ekan. Farzandimga «D» Vitamininchalarini bera boshladim ,YA’ni bir kunda bir marta quchoqlab ,yuzlaridan o‘pib bag‘rimga bosdim. Ko‘rdimki farzandimda o‘zgarishlar boshlandi. SHunday ekan, yz ruhiy holatimni isloq qildim, qizimni emas o‘zimni o‘zgartirdim. Qizim bilan gaplashdim, ko‘proq qo‘l bilan bajariladigan mashg‘ulotlar bilan shug‘ullaandik. Masalan, plastilindan turli shakllar yasadik, rasm chizdik , qum o‘ynadik.

Farzandingizga imkon bering.

Farzndlarda ota-onani tanlash imkoniyati yo‘q, lekin ota-onalarda farzandlari uchun baxtli hayot yaratish imkoniyati bor.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Klyueva N.V Psixolog va oila: diagnostika, maslahat, o‘qish Klyuev-Yaroslavl: Yaroslavl:160p
2. Sh.Sodiqova “Maktabgacha pedagogika” darslik “Tafakkur bo’stoni” TOSHKENT-2013
3. Z.Nishanova, D.Qarshiyeva, N.Atabayeva, Z.Qurbanova Eksperimental psixologiya va diagnostika, ma’ruzalar matni
4. Elektron ta’lim resursi: internet.ped